



THE ROLE OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE AND PHILOSOPHICAL OUTLOOK IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF THE IDEA OF INDEPENDENCE

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Senior Lecturer at the Department of "National Ideology, Foundations of Spirituality, and Legal

Education" at Nukus State Pedagogical Institutenamed after Ajiniyoz

Email: bekimbetovassss@gmail.com

Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, the idea of independence, upbringing, scientific knowledge, philosophical worldview, the principle of secularism, national and universal values, the harmony of education and upbringing.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

Abstract: The article analyzes the role and importance of scientific knowledge and philosophical worldview in educating young people in the spirit of the idea of independence. It is argued that the process of building a democratic legal state and civil society in Uzbekistan is based on the principle of secularism, and that the issues of secularism, the harmony of national and universal values need to be considered on the basis of a philosophical worldview. The issues of the harmony of education and upbringing in educating young people in the spirit of the idea of independence are outlined.

YOSHLARNI MUSTAQILLIK G‘OYASI RUHIDA TARBIYALASHDA ILMIY BILIMLAR VA FALSAFIY DUNYOQARASHNING TUTGAN O‘RNI

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi" kafedrasi katta o‘qituvchisi

email: bekimbetovassss@gmail.com

Nukus, Qoraqalpog‘iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yoshlar, mustaqillik g‘oyasi, tarbiyalash, ilmiy bilimlar, falsafiy dunyoqarash, dunyoviylik tamoyili, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi.

Annotatsiya: Maqolada yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda ilmiy bilimlar va falsafiy dunyoqarashning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va

fuqarolik jamiyati barpo etilishi jarayoni dunyoviylik tamoyiliga asoslanishi, dunyoviylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari falsafiy dunyoqarash asosida ko'rib o'tilishi zarurligi asoslangan. Yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi masalalari bayon etilgan.

РОЛЬ НАУЧНЫХ ЗНАНИЙ И ФИЛОСОФСКОГО МИРОЗНАНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ИДЕИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Дильфуза Оралбаевна Бекимбетова

Старший преподаватель кафедры

«Национальная идея, основы духовности и правового образования» в НГПИ имени Ажиниёза

bekimbetovassss@gmail.com

Нукус, Коракалпогистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, идея независимости, воспитание, научные знания, философское мировоззрение, принцип светскости, национальные и общечеловеческие ценности, взаимосвязь образования и воспитания.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение научных знаний и философского мировоззрения в воспитании молодежи в духе идеи независимости. Утверждается, что процесс построения демократического правового государства и гражданского общества в Узбекистане основывается на принципе светскости, и вопросы светскости, взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей рассматривается с позиции философского мировоззрения. Изложены вопросы взаимосвязи образования и воспитания в воспитании молодежи в духе идеи независимости.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati dunyoviylik tamoyili asosida rivojlantirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimi asosida yoshlarda dunyoviy bilimlar va dunyoqarash shakllantirilmoqda, dinga nisbatan tarixiy meros, ma'naviy qadriyat sifatida munosabat shakllantirilib, dinning axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Ushbu tizim avval ilg'or xorijiy mutaxassislar tomonidan

ekspertizadan o'tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etiladi. Natijada Yangi O'zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib yetishadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida, "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat", deb davlatning dunyoviylik tamoyili asosida rivojlanishi masalasi ko'rsatib o'tilgan.

2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi, Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, deb nomlangan va ushbu moddadagi prinsiplardan biri "ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi", deb nomlangan.

Bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanishi va taraqqiyoti dunyoviy ta'lim, uning sifati va samaradorligiga bog'liqdir. Dunyodagi barcha yetakchi davlatlarda dunyoviy ta'limni rivojlantirish masalasi eng muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Dunyoviy ta'limning sifat va samaradorligi xalqlar, mamlakatlar taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, bugungi dunyoning rivojlangan mamlakatlari dunyoviylik tamoyiliga, dunyoviy bilim va dunyoqarashga asoslangan holda rivojlantirilmoqda. Bugungi dunyoning rivojlangan davlatlari AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada kabi davlatlardan iborat bo'lib, 2024 yilda ta'lim sifati eng rivojlangan davlatlardan 1-o'rinda AQSh, 2-o'rinda Buyuk Britaniya, 3-o'rinda Germaniya, 4-o'rinda Kanada, 5-o'rinda Fransiya, 6-o'rinda Shveysariya, 7-o'rinda Shvetsiya, 8-o'rinda Yaponiya kabi davlatlar turadi. Shuning uchun davlatning rivojlanishi, daromadi, xalqining turmush darajasi, uning sifati dunyoviy bilim, dunyoviy ta'lim, dunyoviy dunyoqarashga asoslangan holda rivojlantirilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining dunyoviylik tamoyili insoniyat ilmiy salohiyatining oshib borishi, texnologik taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hamda madaniy darajaning yuksalib borishi asosida amalga oshirilmoqda.

Dunyoviy bilim, dunyoviy ta'lim, dunyoviy va falsafiy dunyoqarash mamlakat aholisi daromadining o'sishi, aholi salomatligi, tug'ilish xavfsizligi, qonunlarning takomillashuvi, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki darajasining yuqori bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Taraqqiyotning dunyoviylik tamoyili ijtimoiy-iqtisodiy takomil ehtiyojlariga hamohang bo'lib, zamonlarning bir-biriga o'xshamas turfa jarayonlarini harakatlantiruvchi kuch, tafakkur generatoridir. Uning o'zi ham insoniyat ilmiy salohiyatining muntazam ortib borishi, texnologik

taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hamda madaniy darajaning yuksalib borishi kabi muhim jarayonlar bilan uyg'un tarzda takomillashib boradi .

O'zbekistonda yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyoviy bilimlar va falsafiy tafakkurni shakllantirish O'zbekistonda yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalari roli hamda ahamiyatining oshib borishi ham yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalash, ularda ilmiy bilimlar asosida dunyoviy dunyoqarashni, falsafiy tafakkurni shakllantirishni talab qilmoqda.

O'zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish jarayonida uchinchi Renessansga erishish masalasi strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, uchinchi Renessans xalqimizni dunyodagi ilg'or, taraqqiy etgan xalqlar darajasiga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat Uchinchi Renessans sari qanchalik taraqqiy topsa falsafa ilmiga bo'lgan ehtiyoj ham shunchalik ortib boradi. Falsafa ilmi qanchalik rivoj topsa, jamiyat ham shunchalik taraqqiy etib, gumanistik mazmunga ega bo'ladi. Jamiyatning gumanistik mazmunga ega bo'la borishi unda mavjud bo'lgan ta'lim jarayonini to'g'ri, tizimli asosda tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunki, har qanday ta'lim jarayonining mazmuni – muayyan falsafiy nazariyalar asosiga qurilgan ta'lim tizimining real ijtimoiy voqelikdagi o'rni va uni o'zgartira olish imkoniyatlarining mavjudligi bilan ifodalanadi. Bu holatda ta'lim to'g'risidagi falsafiy nazariya qanchalik insonparvar bo'lsa, ta'lim jarayonining mazmuni va mohiyati ham shunchalik progressiv ahamiyat kasb etadi .

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integrasiya bo'lishni talab etadi. Ammo milliy o'zligimiz, tilimiz, milliy xususiyatlarimiz, ma'naviyatimizni saqlab qolish yoshlarimizni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish asosida amalga oshiriladi. Yoshlarning qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish ta'lim va tarbiya yo'nalishida olib boriladi. G'oyaviy tarbiya – inson ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayonidan iborat bo'lsa, mafkuraviy tarbiya esa inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir .

Yoshlarning intellektual darajasini yuksaltirish ularni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda, ularda ilmiy bilimlar va falsafiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Intellektual yoshlar – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga o'zining ilmi, bilimi, aqli va idroki bilan qonunlarimizga hurmat ruhida tarbiya ko'rgan, o'zining tashabbuskor g'oyalari bilan jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etuvchi yoshlar bo'lib, ular yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik g'oyalarining mazmun-mohiyatini to'laqonli tushungan holatda faoliyat olib boradi. Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida yoshlarning ma'naviy sohadagi faolligi ularning o'z aktiv hayotiy pozitsiyasini ongli va ijodiy ravishda amalga oshirishidan iborat bo'lib, bunday pozitsiya - yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish siyosatining mohiyatini bilishni, ijtimoiy hodisalarga teran munosabatni, jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalarini chuqur o'rganishni, ya'ni nazariya bilan amaliyotni mohirona qo'shib olib borishni, mehnatga faol munosabatni, yuksak e'tiqod va axloqiy fazilatlarni namoyon etishni anglatadi.

Bugungi kunda yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda ularning ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirish, ma'naviyat tarbiyasini kuchaytirish, intellektual salohiyatini oshirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangicha fikrlaydigan, demokratik qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakat kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv bilan bog'liq holda ko'radigan yoshlar tarbiyasi yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi zamonda intellektual va ma'naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bugungi kunda yangi O'zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko'lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqmoqda .

O'zbekistonda yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash , masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasi tez rivojlanmoqda. Internet, kompyuter, mobil aloqa vositalari kundalik hayotdan keng o'rin olmoqda. Yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, ularni ilmiy bilimlar, fandagi yangiliklar, kashfiyotlar bilan tanishtirib borish, milliy va umuminsoniy falsafiy ta'limotlar asosida ularning falsafiy dunyoqarashini

shakllantirish yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-falsafiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan asarlarni yaratish, chop etish, yoshlarda kitob o'qish madaniyatini kuchaytirish, elektron kitoblar bazasini shakllantirish ham yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Yoshlar tomonidan iqtidorli shaxslar, olimlar jamoasi tomonidan tabiat, jamiyat, insonning axloqiy va estetik olamini teran o'rganish asosida yozilgan ilmiy-texnikaviy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va estetik asarlarni doimiy tarzda o'rganish, ularni mantiqiy tahlil qilish, xulosalar chiqarish yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. Toshkent, O'zbekiston 2023 yil, 79 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O'zbekiston 2023 yil, 4 bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. <https://lex.uz/en/docs/5013007>
4. Tojiboyeva D. Dunyoviy fan va ta'lim: jadidlar va bizning yondashuv. <https://yuz.uz/news/dunyoviy-fan-va-talim-jadidlar-va-bizning-yondashuv>
5. Negmatova Sh.Sh. Ta'lim falsafasi – uchinchi renessans shakllanishi va rivojlanishining metodologik asosi//O'zbekiston-Finlandiya ta'limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2024-yil 24-25-may, O'zbekiston, Samarqand, 5 bet.
6. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya va mafkura. Toshkent, "Fan" nashriyoti 2015 yil, 243 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. Toshkent, O'zbekiston 2023 yil, 36 bet.
8. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. Toshkent, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2018 yil, 613-614 betlar.